

QORAQALPOQ FOLKLOR-IJROCHILIK AN'ANALARI ASOSIDA BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING IJODKORLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Allanazarov A. A.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimini rivojlantirish, milliy madaniy merosni asrash va yosh avlodni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [2, 15]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituvchilari milliy musiqa madaniyatini chuqur o'zlashtirgan, xalq ijodiy merosini ta'lim jarayonida samarali qo'llay oladigan hamda o'quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirishga qodir mutaxassis bo'lishi zarur [1, 8].

Qoraqalpoq xalqining folklor-ijrochilik an'analari ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, ular xalqning ma'naviy dunyosi, estetik qarashlari va tarbiyaviy tajribasini o'zida mujassamlashtirgan noyob madaniy meros hisoblanadi. Dostonlar, termalar, xalq qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, jirau va baxshilar ijodi nafaqat badiiy qadriyat, balki yosh avlodni ma'naviy kamol toptirishning samarali vositasi sifatida ham e'tirof etiladi.

Musiqa ta'limi jarayonida folklor-ijrochilik an'alaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Milliy musiqa namunalari tahlil qilish, ularni ijro etish, mazmunini pedagogik nuqtayi nazardan sharhlash hamda zamonaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirish talabalarni mustaqil fikrlashga, badiiy tafakkurini rivojlantirishga va kasbiy faoliyatga ijodiy yondashishga undaydi.

Pedagogika fanida ijodkorlik kompetensiyasi shaxsning yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqish, mavjud muammolarga kreativ yechim topish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda kasbiy faoliyatni innovatsion yondashuv asosida amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin etiladi [4, 84]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'alarini musiqa ta'limi mazmuniga integratsiyalash bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi.

Qoraqalpoq xalqining ko'p asrlik folklor-ijrochilik an'analari xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan noyob madaniy meros hisoblanadi. Mazkur meros tarkibiga dostonchilik, jirauchilik, baxshichilik, xalq qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, termalar va boshqa og'zaki ijod namunalari kiradi. Ular asrlar davomida nafaqat badiiy-estetik ehtiyojni qondirish, balki yosh avlodni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni saqlash va ma'naviy kamolotini ta'minlash vositasi sifatida ham xizmat qilib kelgan [7, 91]. Musiqa pedagogikasida milliy folklor namunalari foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini boyituvchi muhim omillardan biridir. Xalq ijodiyotining musiqiy va badiiy xususiyatlarini chuqur o'rganish talabalarda milliy musiqa madaniyatiga nisbatan qiziqish uyg'otadi, estetik didni shakllantiradi hamda ijrochilik mahoratini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'alarida jirau va baxshilar alohida o'rin egallaydi. Ularning ijodida xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy qarashlari, axloqiy me'yorlari va estetik ideallari o'z ifodasini topgan. Jirau tomonidan ijro etiladigan dostonlar tinglovchini voqealar rivojini kuzatishga, obrazlarni tahlil qilishga, ezgulik va adolat g'oyalarini anglashga undaydi [8, 137]. Shu jihatdan ular bo'lajak musiqa o'qituvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Qoraqalpoq xalqining "Qirq qiz", "Edige", "Alpamis", "Sharyar" kabi dostonlari yuksak badiiy qiymatga ega bo'lishi bilan bir qatorda, yoshlarni vatanparvarlik, mardlik, fidoyilik, insonparvarlik va ma'naviy poklik ruhida tarbiyalaydi. Ushbu dostonlarning mazmunini musiqa ta'limi jarayonida tahlil qilish, ularning kuy-ohang xususiyatlarini o'rganish va sahnaviy talqinini tashkil etish talabalarining ijodiy tasavvuri hamda musiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Xalq qo'shiqlari ham bo'lajak musiqa o'qituvchilari kasbiy tayyorlashda muhim didaktik manba hisoblanadi. Lirik, mehnat, marosim va bolalar qo'shiqlari orqali talabalar xalq musiqasining janr xususiyatlarini, kuy tuzilishini, ritmik va intonatsion o'ziga xosliklarini o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, ular milliy musiqa madaniyatining tarbiyaviy imkoniyatlarini anglab yetadilar va kelgusidagi pedagogik faoliyatida ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarini hosil qiladilar [6, 173]. Folklor-ijrochilik an'analari bo'lajak musiqa o'qituvchilarida nafaqat ijrochilik mahoratini, balki pedagogik ijodkorlikni ham rivojlantiradi. Doston va xalq qo'shiqlarini zamonaviy pedagogik metodlar asosida tahlil qilish, sahnalashtirish, ijodiy topshiriqlar ishlab chiqish, musiqiy loyihalar tashkil etish va interfaol mashg'ulotlarda qo'llash talabalarni mustaqil izlanishga, kreativ fikrlashga va pedagogik tashabbuskorlikka undaydi. Shuningdek, folklor materiallarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosga hurmat, kasbiy mas'uliyat va estetik dunyoqarashni shakllantiradi [9, 63]. Bu esa ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatida milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga zamin yaratadi.

Demak, qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'analari bo'lajak musiqa o'qituvchilarning ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik resurs bo'lib, ularni ta'lim jarayoniga ilmiy asosda integratsiya qilish zamonaviy musiqa pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biridir. Pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijalarini baholashning zamonaviy modeli sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvni namoyon eta olish darajasi bilan belgilanadi [4, 132]. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining ijodkorlik kompetensiyasi pedagogik, musiqiy va badiiy faoliyatning uzviy birligi asosida shakllanadigan murakkab integrativ sifat hisoblanadi. Mazkur kompetensiya o'qituvchining musiqiy asarlarni badiiy talqin eta olishi, milliy musiqa merosidan samarali foydalanishi, ta'lim jarayonini kreativ tashkil etishi hamda

o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshira olishini ifodalaydi. Ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorlik kompetensiyasi quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat ekanligini ta'kidlash mumkin.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo'lajak o'qituvchining kasbga muhabbati, milliy musiqa san'atiga qiziqishi, xalq ijodiy merosiga hurmati hamda pedagogik faoliyatni ijodiy tashkil etishga bo'lgan ichki ehtiyojini o'z ichiga oladi. Aynan mazkur komponent talabaning o'z ustida muntazam ishlashi, yangi bilimlarni egallashi va kasbiy mahoratini rivojlantirishiga turtki beradi. Kognitiv komponent musiqa nazariyasi, folklorshunoslik, xalq ijrochiligi, musiqa pedagogikasi va zamonaviy ta'lim texnologiyalariga oid bilimlar tizimidan iborat [7, 114]. Bo'lajak o'qituvchi qoraqalpoq folklorining janrlari, dostonchilik an'analari, jirau va baxshilar repertuari, xalq qo'shiqlarining badiiy hamda musiqiy xususiyatlarini chuqur bilishi zarur.

Amaliy-faoliyat komponenti egallangan bilimlarni pedagogik faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini ifodalaydi. Talaba folklor namunalari ni ijro etish, ularni tahlil qilish, dars ishlanmalariga integratsiya qilish, o'quvchilarning musiqiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish hamda milliy musiqa materiallari asosida interfaol mashg'ulotlar o'tkazish malakasiga ega bo'lishi lozim. Kreativ komponent bo'lajak musiqa o'qituvchisining yangi pedagogik g'oyalarni ilgari surishi, musiqa mashg'ulotlarini noan'anaviy shakllarda tashkil etishi, folklor materiallarini zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirishi va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatini aks ettiradi [5, 91]. Refleksiv komponent pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi, kasbiy yutuq va kamchiliklarini baholashi, o'z ustida muntazam ishlashi hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilishini ifodalaydi. Refleksiya ijodkorlik kompetensiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'analari mazkur komponentlarning har birini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Dostonlarni badiiy tahlil qilish, xalq qo'shiqlarini ijro etish, jirau va baxshilar repertuarini o'rganish, folklor asosida musiqiy loyihalar ishlab chiqish hamda sahnaviy chiqishlarni tashkil etish talabalarning ijodiy fikrlashi, estetik didi, musiqiy tafakkuri va kasbiy mahoratini rivojlantiradi. Shunday qilib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorlik kompetensiyasi shaxsning motivatsion, bilim, amaliy, kreativ va refleksiv sifatlarining o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Mazkur komponentlarni rivojlantirishda qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'alaridan maqsadli va tizimli foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirishni talab etmoqda. Zamonaviy musiqa o'qituvchisi nafaqat musiqiy bilim va ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, balki milliy musiqa merosini ta'lim jarayoniga integratsiya qila olishi, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishi hamda ularning estetik dunyoqarashini shakllantira olishi zarur.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi, avvalo, ta'lim jarayonida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq. Pedagogik shart-sharoit deganda ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlaydigan mazmun, metodik va tashkiliy omillar majmui tushuniladi. Mazkur omillar o'zaro uyg'unlashgandagina talabaning ijodiy salohiyati to'laqonli namoyon bo'ladi [3, 104].

Birinchi pedagogik shart sifatida qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'alarini musiqa ta'limi mazmuniga tizimli integratsiya qilishni ko'rsatish mumkin. Folklor namunalari faqat qo'shimcha material sifatida emas, balki kasbiy fanlarning tarkibiy qismi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq. Xususan, "Musiqi tarixi", "Musiqi nazariyasi", "Vokal ijrochiligi", "Xalq musiqa ijodiyoti" va "Musiqi o'qitish metodikasi" fanlarida qoraqalpoq dostonlari, jirau va baxshilar repertuari hamda xalq qo'shiqlarini tahlil qilish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini boyitadi.

Ikkinchi pedagogik shart - ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan metodlardan foydalanishdir. Muammoli ta'lim, loyiha metodi, ijodiy topshiriqlar, musiqiy improvizatsiya, sahnalashtirish, badiiy tahlil va kichik tadqiqot ishlari talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Ayniqsa, folklor asarlarini zamonaviy musiqiy talqin qilish yoki ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etishga qaratilgan topshiriqlar talabalarni ilmiy izlanishga va kreativ faoliyatga undaydi [5, 101].

Uchinchi pedagogik shart milliy va zamonaviy musiqa ta'limi texnologiyalarining uyg'unligini ta'minlashdan iborat. Raqamli ta'lim resurslari, audio va video arxivlar, notalashtirish dasturlari hamda multimedia vositalari folklor materiallarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, an'anaviy ijrochilik usullarini amaliy mashg'ulotlarda qo'llash talabalar uchun milliy musiqa uslubini chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

To'rtinchi pedagogik shart ijodiy ta'lim muhitini shakllantirish bilan bog'liq. Bunday muhitda talabalar erkin fikr almashadi, musiqiy asarlarni mustaqil talqin qiladi, folklor namunalari ni sahnalashtirish va ijro etishda faol ishtirok etadi. O'qituvchi esa jarayonni boshqaruvchi va maslahat beruvchi sifatida talabalarni yangi g'oyalar izlashga yo'naltiradi. Natijada ijodiy hamkorlik muhiti shakllanib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy faolligi ortadi.

Beshinchi pedagogik shart uzluksiz refleksiv faoliyatni tashkil etish hisoblanadi. Talabalarning ijro jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishi, o'z faoliyatini baholashi hamda kelgusidagi kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashi ijodkorlik kompetensiyasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Refleksiya orqali bo'lajak o'qituvchi o'zining kasbiy imkoniyatlarini anglaydi va pedagogik faoliyatini takomillashtirishga intiladi.

Mazkur pedagogik shart-sharoitlar o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilgandagina qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'analari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali omiliga aylanadi. Bu yondashuv talabalarning milliy musiqa merosiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo'llashga tayyorligini ta'minlaydi [10.98].

Shunday qilib, qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'analari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim mazmunini boyitish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va milliy madaniy merosni zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonni ilmiy asosda tashkil etish bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-son Farmoni. Toshkent sh.,
3. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2005. 200 b.
5. Muslimov N., Boltaboyev S., Turayev A. Kasbiy kompetentlik. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Innovasiya-ziyo", 2024. 168 b.
6. Булатова О.С. Педагогический артистизм: Учебное пособие. Москва: Издательский центр "Академия", 2001. 244 с.
7. Rajabov T. O'zbek xalq musiqa ijodi. Buxoro "Durdona" nashriyoti. 2021. 184 b.
8. Qaraqalpaq folklori. Kóp tomliq. -Nókis: Bilim, 2015.
9. Qaraqalpaq xalq dastanlari. Nókis: Bilim, 1990. 288 b.
10. Кадиров Р. Музыкальная педагогика: Учебное пособие. - Toshkent: "Musiq", 2008. 350 с.
11. Yusupova D. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari // *Xalq ta'limi*. Toshkent, 2022. №4. B. 95-101.

Rezyume. Mazkur maqolada qoraqalpoq folklor-ijrochilik an'analari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik kompetensiyasi, musiqa ta'limi, jirau, baxshi.

Резюме. В данной статье проанализированы педагогические условия развития творческой компетенции будущих учителей музыки на основе каракалпакских фольклорно-исполнительских традиций.

Ключевые слова: творческая компетенция, музыкальное образование, жырау, бахши.

Summary. This article provides a scientific and pedagogical analysis of the pedagogical conditions for developing the creative competence of future music teachers based on Karakalpak folklore and performance traditions.

Key words: creative competence, music education, zhyrau, bakhshi.